

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### BARKAMOL SHAXSNI TARBİYALASHDA O'QITUVCHINING O'RNI HAQIDA MUTAFAKKIRLARNING QARASHLARI

*Abdijamilova Durdona Navruz qizi*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalay olishda o'qituvchi shaxsining o'rni haqida sharq va g'arb mutafakkirlarining fikr-mulohazalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, ta'lim-tarbiya, rivojlanish, shakllanish, o'qituvchi, xulq-atvor, sinf-dars tizimi, muomala.

Bola shaxsiga mehr-shavqat, kasb tanlash, o'z kasbiga muhabbat va mas'uliyat bilan yondashish, tolibi ilm bilan bo'ladigan har qanday holatda ham vaziyatdan chiqib keta olish masalalari tasavvuf ilmi bilan uyg'unlashgan. Sharq pedagogikasida ming yillar davomida xalqimiz ma'naviyatining shakllanishida muhim manba bo'lib kelgan "Qur'oni karim", Hadisi shariflarda, shuningdek, buyuk mutafakkirlar Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Muhammad Iso at-Termiziy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning ilmiy merosida nodir fikrlar tarzida o'z ifodasini topgan.

Abu Nasr al-Forobiy (873-930) o'z asarlarida har bir kishi jamiyatda, davlatga munosib inson bo'lishi uchun ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug'um qilishga intilmasligi, shuningdek haddan tashqari ko'p yon berishiga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu, shogird ustozining juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozini mensimaslikka va u beradigan bilimdan so'vishga olib keladi.

Forobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining fe'l-atvoriga qarab tarbiya ikki usul – ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bordi-yu tarbiyalanuvchilar fan va hunar o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan ilhomlantirish-rag'batlantirish usuli qo'llaniladi: aksincha, mabodo ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar, majburiy usulni qo'llash mumkin.

Mazkur fikrlarning tasdig'ini Abu Rayhon Beruniy (973-1050) ning o'qituvchi faoliyatiga bergan izohidan ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Beruniy yoshlarni o'qitish uchun tarbiyachi tanlash ota-onaning birinchi va asosiy vazifasi deb bilgan. Buning uchun o'qituvchi xushmuomala, rostgo'y, o'z fanini va o'qitish qoidalarini yaxshi biladigan, pokiza, yurish va turishda namuna bo'lishini talab etadi. Beruniy, – tarbiyachining o'zi o'rnak bo'lmasa, aytgan gapiga o'zi rioya etmasa, uning talabi va tarbiyasi samarasizdir,- deb ta'kidlab o'tadi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning fikricha tarbiya yagona jarayon bo'lib, yoshlarga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy tarbiya berishni va hunar o'rgatishni nazarda tutadi. "Tib qonunlari" asarida bolaning 6 yoshdan o'qitish va tarbiyalash uchun muallimga topshirish haqida so'z yuritiladi. Ibn Sino ta'lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi: o'qitishda oddiydan murakkabga qarab borish; bolaning qobiliyat va mayllarini e'tiborga olish; bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi.

Bolaga ta'lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim. Barkamol inson qilib yetishtirish uchun tarbiyachi bolani o'rni bilan rag'batlantirishni ham, o'rni bilan jazolashni ham bilsin. Vaqti-vaqti

bilan bolani maqtab, yomon xulqini qoralab, yaxshi xulqini o'z vaqtida rag'batlantirib ham turish kerak.

Abu Ali Ibn Sino bolalarni yakka-yakka o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim berishni afzal deb hisoblaydi. U jamoada o'qitishning afzalliklari haqida gapirib, ta'kidlaydiki, bunday holatda bolada ilmga intiluvchanlik ortadi; sheriklarning bilimiga havas qilib, o'z bilimlari bilan g'ururlanadi; boshqalardan orqada qolishga bolaning g'ururi yo'l qo'ymaydi; birga o'qiganda bolalar bir-birlari bilan gaplashib nutqi o'sadi, xotirasi mustahkamlanadi: ta'lim jarayonida o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlashadi, bir-birlarini hurmat qilishga odatlanadi, munozara qilishni o'rganadi, o'zaro musobaqalashishadi, o'zlarining huquqi va burchlari haqida fikr almashadilar. Bu esa bolalarning xulqini yaxshilashga axloq normalarini egallab olishlariga ko'maklashadi.

Alisher Navoiy (1441-1501) o'zbek adabiyotining asoschisidir. Shu bilan birga, u pedagog-mudarris hamdir. o'z asarlarida, ayniqsa, "Mahbub-ul-qulub" asarida kasb axloqi, turli guruh kishilarining odobi masalasini maqolalar shaklida yoritadi. U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko'rsatadi. Ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi tamoyillarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi.

Mark Farbiy Kvintilian (Eramizning 42 – 118 y.y.) – mashhur Rim pedagoglaridan. U grek, Rim falsafiy va pedagogika adabiyoti bilan yaxshi tanish bo'lgan. U bolalarning qobiliyatlariga yuksak baho beradi. Olimning fikricha, bola maktabda tarbiyalanmog'i lozim." O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir talabaga ehtiyotkorlik bilan va e'tibor berib muomala qilishi kerak. Ustozning o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, saboq oluvchilarni bo'lar-bo'lmasga mukofotlamasligi, eng muhimi shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi lozim.

Kvintilian o'qituvchilarni o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlarini talab etadi. U shunday deydi: "Fanda dastlabki ma'lumotdan nariga siljimaيدigan, qalbi qalbaki ishonch bilan to'lgan, faqat, o'zlarini olim deb bilgan kishilardan yomoni yo'q". U bolalarni uyda emas, balki maktabda o'qitish g'oyasini ilgari suradi.

Yan Amos Komenskiy (1592-1670) - slavyan donishmandi, insonparvar pedagog, bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy-pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini oddiy xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashga bag'ishladi.

U maktab bolani ma'rifat olamiga boshlaganida, uni hissiy bilishga so'ngra aqliy bilishga o'rgatishi lozimligini, bunday o'qitish jarayonini hissiy idrokdan boshlash kerak, talabini ilgari suradi. Yan Amos Kamenskiy o'z davrida ilk bor mashg'ulotlarning *sinf-dars* shaklida bo'lishi zarurligini asoslab berdi. Bunda u o'qituvchining butun sinf bilan muayyan o'quv mavzusi bo'yicha mashg'ulot o'tkazishni talab qildi

Y.Komenskiy o'qituvchilar faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini yuqori baholab maktab ishining muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchiga bog'liqligini aytadi. Olimning talab etishicha, o'qituvchi o'z ishining ustasi bo'lishi, o'qitish san'atini mukammal egallashi, tajribali o'qituvchilar yosh muallimlarga ko'mak berishi lozim. O'qituvchi tashqi ko'rinishi jihatidan ham o'z o'quvchilariga namuna bo'lishi kerak. Sof vijdonli, o'z kasbini sevadigan va o'z bilim hamda mahoratini uzluksiz takomillashtirib boradigan kishilargina o'qituvchi bo'lishi mumkin.

Ushbu masalaga sal boshqacharoq yondashgan I.Pestalossi o'qituvchining professional sifatlariga baho berishda umuman chetlashib, uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli, fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A.Disterverg o'qituvchining ta'limdagi rolga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini bilishi, uni sevishi, o'quvchilarini yoqtirishi lozim, - deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual

xususiyatlari, qobiliyati, faoliyati uslubi to'g'risida muayyan darajada bilimga ega bo'lishi kerakligini ham ta'kidlab o'tadi. Mutafakkir Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlari orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, ularning ta'limdagi roli yuzasidan mulohaza yuritadi.

A.I.Gersen mulohazasiga ko'ra, o'qituvchining asosiy xislati - bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi, buni unutmash kerak.

O'qituvchi kasbiga oid ilmiy tajribalarda sinalgan mulohazalar rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, "Hech bir ustav yoki dastur hamda sun'iy organizm puxta ishlab chiqilganiga qaramay, inson shaxsining o'rnini bosa olmaydi", - deb hisoblaydi. Insonning xarakteri va his-tuyg'ulari, uning o'quvchilar bilan muloqotga kirishish usuli, o'qituvchi qalbi bolalarga yaqinligi kabi axloqiy xislatlarining shaxsiga xos muhim fazilatlar bo'lib hisoblanib, muallimning tarbiyaviy kuchini belgilaydi va ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan, barkamol bola shaxsini tarkib toptiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali barkamol shaxsni tarbiyalashda o'qituvchi shaxsining o'rnini bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosiy muammolardan biri sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995, 108-109-betlar.
2. Pedagogika tarixi. K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanova-T.; "O'qituvchi" 1996, 10-12-betlar.
3. Pedagogik mahurat. A.Xoliqova, O'quv qo'llanma. T.; "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2010.
4. <http://www.ziyou.net>.